

Maktabgacha Yoshdagi Bolalarning Individual Va Ijtimoiy-Psixologik Xususiyatlari

*Bekmuradova Dilnoza Pirimovna*¹

Annotatsiya: Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, u qiziqqan narsasini imkon qadar chuqurroq bilishga intiladi va binobarin, uzoq vaqt davomida u bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu, o'z navbatida, bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga hamda mustahkamlashga yordam beradi. Shu ma'noda bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda avval ularni erkin tafakkur ob'ekti bilan qiziqtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa bolalarda ijtimoiy-psixologik xususiyatlar tarkib topa boshlaydi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yoshdagi bola, ijobiy va salbiy munosabatlar, muloqot qilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi ilmida bu yoshdagi bolalarda sifat o'zgarishlari tezlashganligini inobatga olgan holda bu davrni uch bosqichga taqsimlab o'rganish maqsadga muvofiq deb topilgan: kichik maktabgacha davr (3–4 yosh); o'rta maktabgacha davr (4–5 yosh); katta maktabgacha yosh (5–6 yoshgacha); maktabga tayyorlov yoshi (6–7 yoshgacha). Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanish jarayonida ajdodlari tomonidan yaratilgan narsa va hodisalar, olam sir-sinoatlari bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. U insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlarni faol o'zlashtirib, egallab boradi. Bolada narsa-hodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu oilada ota-ona, maktabgacha ta'lim muassasalarida esa tarbiyachilar ko'magida yuz beradi.

Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatdagi mustaqillik, o'z-o'zidan tafakkurdagi mustaqillikka asos bo'ladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bosqichlarda murakkab harakatlarni takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini hosil qilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyati – serharakatlilik va taqlidchilikdir. Bu yoshdagi bola tabiatiga xos bo'lgan asosiy qonuniyatni shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz tarzda harakatda bo'lishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki harakatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchaydi. Ko'rinadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatining asosiy qonuniyati bo'lmish serharakatlilikni cheklamay, maqsadli tashkil eta bilish bu yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida kutilgan samarani beradi.

Biz o'z tadqiqotlarimizdan va bir necha yillik tajribamizdan kelib chiqib quyidagi fikrlarni beramiz: jismoniy serharakatlilik bolaning fiziologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, tayanch a'zolari harakati tufayli bola jismonan yaxshi rivojlanadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot asnosida bola axloqiy-me'yoriy mezonlar, atrofdagilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bola harakatlari uning jismi bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshadi. Bu davrda bolaning nutqi ham jadal rivojlana boshlaydi. U o'zi bilganlariga qo'shimcha yangiliklarni o'zlashtirish va ularni mustahkamlashga moyil bo'ladi. Bu jarayonda bolada o'yin faoliyati orqali

¹ Qashqadaryo viloyati PYMO`MM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasining katta o'qituvchisi



kommunikativ ko'nikmalari shakllanadi, atrofdagilar bilan tez-tez muloqot qilish orqali yangi so'z va tushunchalarni o'rgani boladi va amalda o'zi mustaqil o'zlashtirib oladi.

Ko'rinadiki, mazkur yoshdagi bolani mustaqil fikrlashga yo'naltirish, har qanday hayotiy yoki badiiy hodisaga diqqatini tortish, unga o'z munosabatini bildirishni talab qilish bolada shaxslik sifatlarining shakllanishi garovidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu, avvalo, keng davraga chiqish, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarinig mavjudligidandir. Bu yoshdagi bolalar nutqni ma'lum darajada o'zlashtirganliklari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayliularda o'zlariga yaqin bo'lgan kattalar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular kengroq doiradagi munosobatlarga intila boshlaydilar, qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynaydilar. Hamma narsani bilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi.

Maktabgacha yoshdagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri – har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bu yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli ham juda katta. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolani biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham psixologlar qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa deya baholaydilar .

Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarida bolalarga xos bo'lgan bu tabiiy xususiyatlar qiziqish va bilishga intilish sifatlaridan ularning o'zlari uchun oqilona foydalanish milliy tarbiyashunoslikning bosh maqsadi – barkamol shaxsni shakllantirish maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, u qiziqqan narsasini imkon qadar chuqurroq bilishga intiladi va binobarin, uzoq vaqt davomida u bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu, o'z navbatida, bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga hamda mustahkamlashga yordam beradi. Shu ma'noda bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda avval ularni erkin tafakkur ob'ekti bilan qiziqtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

Odatda har qanday tafakkur jarayoni biror narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Biz o'zbeklarda ko'pchilik ota-onalar va ayrim tarbiyachilar bolalar savol beraversalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding», deb jerkib tashlaydilar. Natijada bola hamma narsani o'zbilganicha tushunishga harakat qiladi. Passiv va tortinchoq bolalar esa hech savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari savol berishlari, shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har qanday tafakkur odatda biror narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. SHuning uchun ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilish ruhshunoslik ilmida tafakkur jarayoni deb ataladi. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar va analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Masalan, ruhshunoslarning ta'kidlashicha, fikrlash, ya'ni tafakkur odam miyasining faoliyatidir. Sezgi organlari etarli bo'lmagan o'rinlarda odam va olamning xususiyatlari uning tafakkuri orqali o'rganiladi.

Tafakkur – aqliy faoliyat, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash orqali o'zi o'qigan, ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyiligi hamda ularning atrof-muhitga munosabatini aniqlaydi² .

²G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi – T.: «O'qituvchi», 1990; Karimova V.M., Sunnatova R. Mustaqil fikrlash. – T.: «Sharq», 2000;



Ikki yashar bolaning soʻz zaxirasi taxminan 250 tadan 400 tagacha, uch yoshli bolaning soʻz boyligi 1000 tadan 1200 tagacha va 7 yashar bolaning leksikoni 4000 taga etadi. Demak, maktabgacha yosh davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bu yoshdagi bolalar nutqining oʻsishi oilaning maʼnaviy saviyasiga ham bogʻliq. Kattalar bolalar nutqini oʻstirish bilan shugʻullanar ekanlar, bogʻcha yoshidagi bolalar baʼzi hollarda oʻz nutq sifatlarini toʻla idrok eta olmasliklarini ham unutmasliklari kerak boʻladi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qatʼiylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai boʻlib ularning taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari, badiiy asarlarning qahramonlari ham boʻlishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalar, ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari orqali oʻtadi, mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu bahova maqtovlar bola shaxsining muvaffaqiyatga erishuvi, uning maʼnaviy kamoloti, hatto jismoniy rivojlanishida, shuningdek, shaxsiy hayoti hamda kasb tanlashida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Maktabgacha yosh davrida bolalar uchun kattalar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda maishiy axloq norma va qoidalarini, oʻz majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish normalarini egallaydilar. Bunday normalarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanadi.

Bogʻcha yoshining oxirlariga kelib, koʻpchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bogʻliq boʻlgan shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Bu kishilarga nisbatan diqqatli, mehribon boʻlish xususiyatidir.

Katta yoshdagi bolalar koʻp hollarda oʻz xatti-harakatlari sababini tushuntirib bera oladilar. 3–3,5 yosh oraligʻida oʻzlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga oʻz munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat asosan ularning oʻzlariga beradigan baholari asosida boʻladi. 4 yoshli bolalar esa oʻzi mkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin 4–5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etish va baholashga qodir emaslar, shuningdek oʻzlari haqida maʼlum bir xulosani ham bera olmaydilar.

Oʻz-oʻzini anglash layoqati katta bogʻcha yoshidan boshlab rivojlanib, avval, u qanday boʻlgani va kelajakda qanday boʻlishini fikrlab koʻrishga harakat qiladi. Bu bolalar kattalarga beradigan «Men kichkina paytimda qanday boʻlgan edim?», «Men katta boʻlganimda qanday boʻlaman?» singari savollarida koʻrinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa shu singari qimmatli insoniy fazilatlariga ega boʻlishga harakat qiladilar.

Kichik va oʻrta bogʻcha yoshida ham bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. SHu yillardan boshlab bolada ahamiyatli hisoblangan – iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. 5–6 yoshida bola atrofdagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatga kirishishga oʻrgana boshlaydi. Bu unga kelajakda odamlar bilan til topishish, ish boʻyicha va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda oʻrnata olishda foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularningota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bogʻcha yoshidagi bolalarning xayoli, asosan, ularning turli-tuman oʻyin faoliyatlarida oʻsadi. Bogʻcha yoshidagi bolalarning xayollari turli xil mashgʻulotlarda ham oʻsadi. Masalan, bogʻcha yoshidagi bolalar loy oʻynash, yaʼni loydan turli narsalar yasash, qumdan turli narsalar qurib oʻynash va rasm solishni yaxshi koʻradilar. Ana shunday mashgʻulotlar bolalar xayolining oʻsshiga faol taʼsir qiladi. Bogʻcha yoshidagi bolalar xayolining oʻsishiga faol taʼsir qiluvchi omillardan yana biri ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan maʼlum munosabat yuzaga keladi.

Bogʻcha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuygʻular gʻoyat kuchli va juda tez namoyon boʻladi. Bogʻcha yoshidagi bolalarning his-tuygʻulari organik ehtiyojlarining qondirilish-kondirilmasligi bilan bogʻlikdir. Ehtiyojlar qondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz),



norozilik, iztiroblanish hislariqo'zg'aladi. Katta bog'cha yoshidagi bolalarda burch hissi – nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglash bilan ahloqiy tasavvur o'rtasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biror topshiriq bajarilgandagi mamnunlik, shodlik tuyg'ulari biror tartib qoidani buzib qo'ygandagi xafalik, ta'bi xiralik hissibilan tez-tez almashib turadi. SHuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy xisssiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoa hissi ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bu davrida estetik hissiyotlar ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hisslarning namoyon bo'lishini ular biror chiroyli, yangi kiyim kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

Maktabga tayyorlov guruhi dasturlarida bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek etarli darajada rivojlangan bilish jarayonlari talab etiladi. 6–7 yoshli bola tabiat haqidaayrimhodisalariniginaemas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligi va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirish imumkin. 6–7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning yuqori darajasiga erishadi va ko'rgazmali-obrazli tafakkuri orqali atrof olamdagi predmetlar xususiyatlari va ular orasidagi aloqadorlikni ajrata oladi.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashida quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasvirlash faoliyati va ularning psixologik xususiyati; ●

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim mashg'ulotlari va uning psixologik xususiyatlari; ●

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat mashg'ulotlari va ularning psixologik xususiyatlari; ●

Maktabgacha yoshdagi bolalar asab tizimi rivojlanishi; ●

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasi (idroki, nutqi, taffakurning rivojlanishi, hissiyotlari va onging rivojlanishi). ●

Ko'rinadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirishda ularga xos bo'lgan mana shu pedagogik tabiiy-ruhiy xususiyatlarni inobatga olish bu borada muvaffaqiyatga erishish garovidir.

Adabiyotlar:

1. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1990;
2. Karimova V.M., Sunnatova R. Mustaqil fikrlash – T.: «Sharq», 2000;
3. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash . – T.: «Fan», 2004;
4. Тихомиров О.К. Психология мышления. – М.: МГУ, 1984
5. ; Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления (для пятилетних детей). – М.: «Знание», 1984;
6. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: «Просвещение», 1991
7. ; Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: «Педагогика», 1982
8. F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari. T.: "ISTIQLOL", 2006y.
9. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish metodikasi" T.: Fan va texnologiyalar 2009yil.
10. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma TDPU 2017yil.

